



## MURATBAY NIZANOV HAYOTI VA IJODI

AZRATDINOV NIZAMATDIYIN

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

"Texnogen va san'atshunoslik" fakultetining 2-kurs talabasi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filialining

JAQSIMURATOVA ANAR

"San'atshunoslik" kafedrasining assistant o'qituvchisi

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqola O'zbekistonning taniqli adibi, tarjimon va publitsisti Muratbay Nizanovning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan. Unda yozuvchining hayot yo'li, adabiy merosi, tarjimonlik faoliyati hamda o'zbek adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi yoritiladi. Nizanov asarlarining mavzu doirasi, uslubiy xususiyatlari va jamiyatdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, uning o'zbek tilidagi tarjimalari, adabiy-estetik qarashlari va publitsistik faoliyati orqali yosh avlodni ma'naviy tarbiyalashdagi o'rnnini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Muratbay Nizanov, o'zbek adabiyoti, tarjimonlik, publitsistika, adabiy meros, estetik qarashlar, ma'naviy tarbiya, yozuvchi hayoti, ijodiy uslub.

### ЖИЗНЬ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МУРАТБАЯ НИЗАНОВА

**АННОТАЦИЯ:** Статья посвящена изучению жизни и творчества Муратбая Низанова — известного узбекского писателя, переводчика и публициста. В нем будет рассказано о жизни писателя, его литературном наследии, переводческой деятельности и вкладе в развитие узбекской литературы. Анализируются тематика, стилистические особенности и социальная значимость произведений Низанова. В статье также



освещается его роль в духовном воспитании подрастающего поколения посредством переводов на узбекский язык, его литературно-эстетических взглядов, публицистической деятельности.

**Ключевые слова:** Муратбай Низанов, узбекская литература, перевод, публицистика, литературное наследие, эстетические взгляды, духовное воспитание, жизнь писателя, творческий стиль.

## LIFE AND WORK OF MURATBAI NIZANOV

**ABSTRACT:** The article is devoted to the study of the life and work of Muratbai Nizanov, a famous Uzbek writer, translator and publicist. It will tell about the life of the writer, his literary heritage, translation activities and contribution to the development of Uzbek literature. The subject matter, stylistic features and social significance of Nizanov's works are analyzed. The article also highlights his role in the spiritual education of the younger generation through translations into the Uzbek language, his literary and aesthetic views, and journalistic activities.

**Key words:** Muratbai Nizanov, Uzbek literature, translation, journalism, literary heritage, aesthetic views, spiritual education, writer's life, creative style.

## KIRISH

O‘zbek va qoraqalpoq adabiyotida o‘ziga xos ovoz va uslubga ega bo‘lgan ijodkorlardan biri bu – Murodboy Nizanovdir. Uning adabiyot, jurnalistika, televideniye va kino sohalaridagi ko‘p qirrali faoliyati qoraqalpoq madaniy hayotining shakllanishi va taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shtigan. Nizanov o‘z ijodiy faoliyatida milliy qadriyatlar, jamiyat hayoti, insoniy tuyg‘ular va zamonaviylikning uyg‘unligi kabi dolzarb mavzularni yoritishga alohida e’tibor bergen.



Uning hayot yo‘li oddiy mehnatkashlikdan boshlangan bo‘lsa-da, keyinchalik nashriyotlar, televideniye va kino sohasida rahbarlik darajasigacha yetib borgan. Bu esa ijodkorning tashabbuskorligi, madaniyatga sadoqati va ijodiy izlanishlarining samarasi sifatida qaraladi. Murodboy Nizanovning asarlari o‘quvchilar qalbiga yaqinligi, hayotiyligi va badiiy mahorati bilan ajralib turadi.

Mazkur ishda Murodboy Nizanovning hayoti, adabiy faoliyati, u tomonidan yaratilgan asarlarning tahlili va ular orqali ifodalangan g‘oyaviy-badiiy jihatlar chuqur yoritiladi. Bu orqali yosh avlodni adib ijodiy merosidan xabardor qilish, u orqali milliy adabiyotimizga bo‘lgan qiziqishni oshirish ko‘zda tutilgan.[1]

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Murodboy Nizanov 1951-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasining Kegeyli tumanida dunyoga kelgan. O‘rta maktabni tamomlagach, u Qoraqalpoq davlat universitetining sirtqi bo‘limida tahsil olib, oliy ma’lumotga ega bo‘lgan. Mehnat faoliyatini tug‘ilgan hududidagi M. Jumanazarov nomidagi qishloq xo‘jaligida oddiy ishchi sifatida boshlagan. Shuningdek, u „Paxtakor“ sport jamiyatida instruktor lavozimida ham ishlagan.

Nizanovning hayoti va ijodi asosan matbuot, nashriyot, televideniye hamda kino san’ati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. U tuman gazetasida, shuningdek, „Jetkinshek“ va „Sovet Qaraqalpaqstanı“ (bugungi „Erkin Qaraqalpaqstan“) gazetalari tahririyatida adabiy xodim sifatida ishlagan. Keyinchalik Qoraqalpog‘iston televideniesi va radioeshittirish qo‘mitasida bosh muharrir, televidenieda direktor o‘ribbosari, „Aral“ jurnalining bosh muharriri, „Qaraqalpaqstan“ nashriyoti direktori, „Qoraqalpoqfilm“ kinostudiyasining rahbari kabi lavozimlarda faoliyat yuritgan.[2]

Bugungi kunda u „Bilim“ nashriyotining direktori sifatida ishlamoqda. Murodboy Nizanov 1991-yildan boshlab O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi hisoblanadi.



Murodboy Nizanov nafaqat yozuvchi va jurnalist, balki madaniyatning muhim tarmog‘i bo‘lgan kino sanati sohasida ham faoliyat yuritgan. U “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyasining direktori lavozimida ishlagan yillarda qoraqalpoq kinosining rivojlanishi uchun zarur tashkiliy va ijodiy ishlarni amalgaloshirdi. U rahbarlik qilgan davrda bir necha badiiy va hujjatli filmlar ishlab chiqarildi, bu esa mintaqqa madaniy merosining ekran orqali keng targ‘ib qilinishiga xizmat qildi.

Nizanovning kinoga bo‘lgan qiziqishi, uning jurnalistika va adabiy ijodi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u kino sanatiga nafaqat tashkiliy rahbar, balki g‘oya muallifi va ijodiy maslahatchi sifatida ham hissa qo‘shtigan. U milliy qadriyatlar, qoraqalpoq xalqining turmush tarzi, tarixiy shaxslar va dolzarb ijtimoiy mavzularni kino orqali ifodalashga intilgan. Kino sanati orqali u xalqning ruhiy olami, o‘ziga xoslik va madaniy yodgorliklarini yoritishga uringan.[3]

Shuningdek, Nizanovning adabiy asarlari ham kino uchun mos ssenariylar sifatida xizmat qilishi mumkin bo‘lgan badiiy kuchga ega. Uning obraz yaratishdagi mahorati, syujet qurilishidagi puxtalik va tilning badiyligi uning ssenariy yozuvchisi sifatidagi salohiyatini ham ko‘rsatib beradi.

Murodboy Nizanovning ilk satirik hajviy asari "Qassaptıń túsi" 1971-yilda Kegeyli tumani gazetasida bosilib chiqqan bo‘lib, bu uning adabiyotga kirib kelishidagi muhim qadam bo‘lgan. Bugungi kungacha u 20 dan ortiq kitob muallifi sifatida tanilgan. Satira janrini chuqur o‘zlashtirgan yozuvchi “Usınday da boladı”, “Kúlkim keledi”, “Nıshana”, “Sizge bolmaydı”, “Adam kúldirgeni ushın”, “Jat juruttaǵı jeti kún”, “Irasın aytsań uradı”, “Adam jamanlasań zeyniń ashıladı”, “Ikki qonxo‘r”, “Gáziyne”, “Jaqında qızıq boladı”, “Aqshagúl”, “Aqıret uygısı”, “Dushman”, “Ashıq bolmaǵan kim bar” kabi ko‘plab hikoya, povest va romanlarini yaratgan. Ularning barchasida kundalik hayotdagi salbiy holatlar va kulgili voqealar yumoristik uslubda tasvirlangan.[4]



Nizanov nafaqat nasrda, balki poeziyada ham ijod qilgan bo‘lib, 2012-yilda uning “Sen hám men” nomli qo‘shiqlar to‘plami nashrdan chiqqan. 1980-yillardan boshlab uning asarlari o‘zbek, qozoq, tatar va nog‘ay tillarida ham bosilib chiqib, keng o‘quvchilar ommasiga yetib borgan. Bugungi kunda ham uning hikoya va povestlari qardosh xalqlarning nufuzli jurnallarida e’lon qilinmoqda.

Dramaturg sifatida ham ijod qilgan yozuvchining “Eki dúnyaniń áweresi” va “Ólimnen uyat kúshli” nomli komediyalari, shuningdek, musiqali dramalari sahnalashtirilgan.

Murodboy Nizanov 2003–2013 yillar oralig‘ida Qoraqalpoq kinosiga rahbarlik qilib, 10 yil davomida 8 ta badiiy film, bolalar uchun 10 ta satirik jurnal, 4 ta animations film va bir qator hujjatli filmlarning yaratilishiga bosh-qosh bo‘lgan. Uning satirik videofilmlari va teleminiatyuralari O‘zbekiston televidenyesi orqali, hajviy eshittirmalari esa O‘zbekiston radiosи orqali efirga uzatilgan. Bu ijodiy ishlari orqali u respublika miqyosida keng tanilgan. 2002-yilda “O‘zbekfilm” va “Qoraqalpoqfilm” kinostudiyalari tomonidan uning ssenariysi asosida “Tanka” komedyasi suratga olingan va o‘zbek tiliga dublyaj qilingan. Shuningdek, “Uri”, “Kurort”, “Qaysar”, “Mehrigiya-márgiya”, “Qorǵan” kabi kinolarning ssenariylari ham uning qalamiga mansub bo‘lib, bu filmlar tomoshabinlar orasida juda mashhur bo‘lgan.[5]

Ijodiy va madaniy sohalardagi xizmatlari uchun Murodboy Nizanov 1999-yilda “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangan, 2012-yilda “Qoraqalpog‘iston xalq yozuvchisi” unvoniga sazovor bo‘lgan va “O‘zbekiston Respublikasiga xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” degan sharaflı nom bilan ham e’tirof etilgan.

Murodboy Nizanov qoraqalpoq adabiyotining eng yorqin va serqirra namoyandalaridan biri hisoblanadi. Uning ijodi satira, nasr, drama, poeziya hamda kino sohalarini qamrab olib, xalqning turmush tarzini, ruhiy holatini va ijtimoiy muammolarini o‘ziga xos iste’dod bilan aks ettiradi. Adibning asarlarida hazil va



kulgi vositasida insoniy kamchiliklar, jamiyatdagi illatlar ochib beriladi, shu bilan birga u o‘quvchini o‘ylantiradi, xulosa chiqarishga undaydi.

Uning adabiyotdagi ilk qadamlaridan boshlab to hozirgacha davom etayotgan ijodi doimo yangilikka intilgan, xalq bilan bog‘langan holda shakllanib kelmoqda. Murodboy Nizanov faqat yozuvchi sifatida emas, balki dramaturg, ssenarist va noshir sifatida ham yuksak mahorat ko‘rsatgan. Ayniqsa, uning qoraqalpoq kinosi rivojiga qo‘shtan hissasi tahsinga loyiq bo‘lib, qisqa muddat ichida bir qator badiiy, animatsion va hujjatli filmlarni yaratgan. Bu esa uning san’at va madaniyat rivojiga fidokorona xizmat qilganini ko‘rsatadi.[6]

## XULOSA

Uning ko‘p tillarda chop etilgan asarlari faqat Qoraqalpog‘iston doirasidagina emas, balki turli millatlar orasida ham keng auditoriyaga ega bo‘lgan. Bu esa adibning asarlari universalligini, xalqchil uslubini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Murodboy Nizanov ijodi qoraqalpoq va umuman o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin egallaydi. Uning hayoti, adabiy merosi va ko‘p qirrali faoliyati kelajak avlod uchun boy manba, o‘rnak va ilhom manbai bo‘lib qoladi. Adibning ijodiga berilayotgan e’tibor va e’tirof – bu uning xalq qalbidagi o‘chmas izini, samimiy mehnatining samarasini yaqqol namoyon etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nizanov M. *Aqret uyqisi*. – Nukus: Aral, 2010.
2. Nizanov M. *Sen hám men* (qo‘schiqlar to‘plami). – Nukus: Bilim, 2012.
3. Jo‘rayev A. *Qoraqalpoq adabiyoti tarixi*. – Nukus: QDU nashriyoti, 2006.
4. Bozorov J. *Satira janrining o‘ziga xos xususiyatlari*. – Toshkent: Fan, 2009.
5. Qayumov M. *O‘zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalari*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003.
6. Rasulov T. *Qoraqalpoq adabiyoti va dramaturgiyasi*. – Nukus: QDU, 2007.